



INGILIZ VA O'ZBEK TILLARIDA METAFORALARNING QO'LLANISHI

Eshqobilova Sevinch Akram qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti
eshqobilova017gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillardagi metaforalarning lingvistik hamda madaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qiladi. Metaforaning badiiy mutqadagi o'rni, kundalik muloqotda qo'llanishi va tafakkur bilan bog'liq jihatlari o'rganilib, ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida har ikki tildagi o'xshash va farqli metaforik birliklar misollar asosida tahlil qilinadi. Natijada metaforalarning til o'rganish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Metaforalar, qiyosiy tahlil, etimologiya, oddiy va murakkab metafoa, standard.

Ma'lumki, metafora tushunchasi nafaqat o'zbek tilshunosligi sohasida, balki jahon tilshunosligida ham keng qo'llaniladi, hamda uning vazifalari shundan iboratki, u lug'at boyligini oshirishda, so'zlarning ma'nolarini aniq va to'g'ri tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Metafora so'zining etimologiyasiga keladigan bo'lsak, u yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, "metaphora" ko'chirish, ko'chim degan ma'noni anglatadi. Metafora o'xshashlik asosida so'z yoki iboralarning ma'nolarini boshqa bir so'z va

iboraga ko'chirish orqali vujudga kelgan badiiy tasvir vositasi. U tilni jozibali qiladi, bu matnni ta'sirchan bo'lishiga va o'quvchining fikrlarni aniqroq tushunishiga va yozuvchining fikrlarini ta'sirli ifodalashiga yordam beradi. U

har bir sohaning asosiy elementlaridan biridir, ya'ni metafora badiiy adabiyotda, nutqda, kundalik hayotdagi muloqot jarayonida ham keng foydalaniladi.

O'zbek tilida metaforalar 2 turga bo'linadi. Bular oddiy va murakkab metaforalardir. Oddiy metafora - bir so'zdan iborat bo'ladi. Misol uchun: "Vaqt-o'q" - bu oddiy metafora hisoblanib, vaqtning ko'z yumib ochguncha tez o'tib ketishi o'qqa qiyoslangan. Murakkab metafora esa birdan ortiq so'z yoki iboralardan tashkil topadi. Masalan, "Badanidan sovuq ter yugurib o'tdi" - bu qo'rqib ketish ma'nosida qo'llaniladi.



" tushunchasi ilk marotaba Izokratning "Evagorus" asarida qo'llangan.Ingliz olimi E.Ortoni kundalik hayotda metaforadan foydalanishning quyidagi 3 asosiy sababini ko'rsatgan:

1. Ular birga qisqacha gapirishga yordam beradi.
2. Ular bizning nutqimizni boyitadi.
3. Ular ifodalab bo'lmaydigan narsalarni ifodalashga imkon beradi.[1]

Metafora tulari ingliz tilida 12tani tashkil qiladi.Lekin ularning asosiylari standard,implied,visual,extended metaforalardir.Bularning o'zbek tilidagi variantlari ham mavjud.Standard metaphora o'zbek tilidagi oddiy metafora bo'lib, bu narsani bevosita boshqa narsaga tenglashtirib aytishdir.Bunga ingliz tilidagi "Life is a stage" metaforasini misol qilish mumkin,o'zbek tilida esa "Hayot-sahna".Ikkinchi asosiy tur implied metaphora- yashirin metaforada o'xshatilayotgan narsa ochiq aytilmaydi,faqat ishorasi bo'ladi."She barked at me"- "U menga hurdi".Bu yerda ayol itga o'xshatilgan,lekin it so'zi keltirilmagan.Visual metaphoravizual(tasviriy)metafora esa so'z bilan emas,rasm yoki tasvir orqali

ifodalanadi.Masalan,yurak qulf bilan chiziladi,bu "Yuragi yopiq" degan tushuncha anglashilishiga yordam beradi.To'rtinchi asosiy tur bu extended metaphora,ya'ni kengaytirilgan metafora bir nechta gap davomida davom ettiriliadi."Life is a journey.We meet people,lose direction,and find new roads". Bu inglizcha metaforaning o'zbek tilidagi varianti "Hayotsafar.Ba'zan adashamiz,ba'zan to'xtaymiz,ba'zan manzilga yetamiz" hisoblanadi.

O'zbek va ingliz tilshunosligida metafora doirasida,asosan,o'xshashliklarni uchratish mumkin,farqli jihatlar sezilmaydi.Ikkala tilda ham metafora o'xshashlik bo'lib,bir leksema ikkinchileksema paydo bo'lishiga zamin yaratadi.Misollar asosida ko'rib chiqamiz.

Erkin Vohidovning "Quyosh maskani" dostonida metaforalar she'riy shaklda ifodalangan.

"Kuz keldi-yu,ona tabiat

Sariq ko'ylagini kiyib oldi ul"

Bu parchada kuz fasli kiyim kiyayotgan ayolga o'xshatilib,jon bilan tirilmoqda.Ingliz adabiyotida esa William Shakespeare asarlari asosida metaforalarni tahli qilamiz.Shekspir o'zining 33-sonetida quyoshni xuddi naqqosh kabi tog'lar ortidan bosh ko'tarib,hamma yoqni oltinga bo'yovchi ulug'vor siymo sifatida tasvirlaydi.

"Full many a glorious morning I have seen

Flatter the mountain-tops with sovereign eye, Kissing with golden face the meadows green, Gilding pale streams with heavenly alchemy".



Xulosa qilib aytganda,metaforalar hayotimizning bir bo‘lagi,tilshunoslikning muhim qismi desak,mubolag‘a bo‘lmaydi.Chunki metaforalar orqali tilning lug‘at boyligi tarkibi kengaytiriladi,fikr va mulohazalarni to‘g‘ri,ta’sirli ifodalab,yetkazib berishda va qabul qilishda poydevor hisoblanadi,yana bir ahamiyatli tomoni shundaki,mavhum tushunchalarni aniqroq ifodalaydi,nutqimizni jozibaliligini oshiradi,bu bilan e’tiborni qarativ,muayyan g‘oya yoki obrazni ajratib ko‘rstadi.Oddiy fikrni chiroyli va o‘ziga tortadigan shaklga keltiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. "Metaforaning tilshunoslikda namoyon bo‘lishi va ilmiy ahamiyati" maqolasi Jo‘rayeva Bibish,Sharipova Ozoda
2. Erkin Vohidov "Quyosh maskan3.William Shakespeare 33-sonet
3. "Turli tizimli tillarda metaforalarning asosiy turlari va o‘rganish yo‘nalishlari"maqolasi Abdualimova Maftuna,Isoqova Ozoda
4. "Ingliz va o‘zbek tillarida metaforalarning lingvoluturalogiyasi"maqolasi